



BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARINI AMALGA OSHIRISHDA “YASHIL” INVESTITSIYALAR VA BANDLIKNING STRATEGIK AHAMIYATI

Muxtorov Ilhom

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0005-5948-6177

mukhtorovilhom4@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda Barqaror rivojlanish maqsadlarini (BRM) amalga oshirish jarayonida “yashil” investitsiyalar va bandlikning ahamiyati yoritib berilgan. Maqolada BRMlarning milliy rivojlanish siyosatiga integratsiya qilinishi, “yashil” budjetlashtirish amaliyoti hamda “O'zbekiston-2030” strategiyasi doirasida belgilangan ustuvor yo'nalishlar asosida “yashil” iqtisodiyotga o'tishning institutsional va moliyaviy mexanizmlari yoritib berilgan. Jumladan, qayta tiklanuvchi energetika sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning o'zgarish dinamikasi, davlat budjeti xarajatlarining BRM bo'yicha markirovkasi hamda “yashil” moliyalashtirish instrumentlari tahlili orqali “yashil” investitsiyalarning BRM 7, 8, 9, 11, 12 va 13-maqsadlariga erishishdagi roli asoslab berilgan. Tahlil natijalari bo'yicha tegishli xulosalar shakllantirilib, ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Barqaror rivojlanish maqsadlari, ijtimoiy inklyuzivlik, “yashil” iqtisodiyot, barqaror va inklyuziv urbanizatsiya, “yashil” ish o'rinlari, “yashil” moliyalashtirish mexanizmlari.

СТРАТЕГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ «ЗЕЛЁНЫХ» ИНВЕСТИЦИЙ И ЗАНЯТОСТИ В РЕАЛИЗАЦИИ ЦЕЛЕЙ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

Мухторов Илхом

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье раскрывается значение «зелёных» инвестиций и занятости в процессе реализации Целей устойчивого развития (ЦУР) в Узбекистане. Рассматриваются вопросы интеграции ЦУР в национальную политику развития, практика «зелёного» бюджетирования, а также институциональные и финансовые механизмы перехода к «зелёной» экономике в рамках стратегии «Узбекистан-2030». В частности, анализируются динамика инвестиций, направленных в сферу возобновляемой энергетики, маркировка расходов государственного бюджета в соответствии с ЦУР, а также инструменты «зелёного» финансирования. На основе данного анализа обосновывается роль «зелёных» инвестиций в достижении ЦУР 7, 8, 9, 11, 12 и 13. По результатам анализа сформулированы соответствующие выводы, а также разработаны научные предложения и практические рекомендации.

Ключевые слова: Организация Объединённых Наций, Цели устойчивого развития, социальная инклюзивность, зелёная экономика, устойчивая и инклюзивная урбанизация, зелёные рабочие места, механизмы зелёного финансирования.

THE STRATEGIC IMPORTANCE OF "GREEN" INVESTMENTS AND EMPLOYMENT IN ACHIEVING SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS

Mukhtorov Ilhom

Tashkent State University of Economics

Abstract. *This article highlights the importance of "green" investments and employment in the process of implementing the Sustainable Development Goals (SDGs) in Uzbekistan. It examines the integration of the SDGs into national development policy, the practice of green budgeting, and the institutional and financial mechanisms for transitioning to a green economy within the framework of the "Uzbekistan-2030" Strategy. In particular, the article analyzes the dynamics of investments directed toward renewable energy, the tagging of state budget expenditures in accordance with the SDGs, and green financing instruments. Based on this analysis, it substantiates the role of green investments in achieving SDGs 7, 8, 9, 11, 12, and 13. Based on the results of the analysis, relevant conclusions are formulated, and scientific proposals and practical recommendations are developed.*

Keywords: *United Nations, Sustainable Development Goals, social inclusiveness, green economy, sustainable and inclusive urbanization, green jobs, green financing mechanisms.*

Kirish.

Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030-yilgacha mo'ljallangan Barqaror rivojlanish kun tartibi doirasida qabul qilingan. Zamonaviy taraqqiyot jarayonlarining asosiy muammolarini tizimli ravishda hal etishni maqsad qilgan 17 ta o'zaro uzviy bog'langan va kompleks xususiyatga ega global maqsadlar majmuasini o'zida aks ettirgan. Mazkur maqsadlar iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlash, inson kapitalini rivojlantirish, ijtimoiy inklyuzivlikni kuchaytirish hamda ekologik muvozanatni saqlashni yagona konseptual yondashuv doirasida uyg'unlashtirganligi bilan ahamiyatlidir.

BRMlar qashshoqlik va tengsizlikni qisqartirish, sog'liqni saqlash va ta'lim sifatini oshirish, munosib mehnat va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, sanoatlashtirish va innovatsion rivojlanishni jadallashtirish, resurslardan samarali foydalanish, iqlim o'zgarishiga moslashuv hamda samarali institutlarni shakllantirish kabi yo'nalishlarni qamrab olgan holda, barqaror rivojlanishni ta'minlashda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarning o'zaro integratsiyalashganligini nazariy-metodologik jihatdan asoslaydi.

O'zbekiston ham global iqtisodiy tizimlarning teng huquqli subyekti ekanligi va jahondagi iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarga chuqur integratsiya bo'lib borayotganligi bois BRM doirasida mamlakatning milliy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda universal konseptual platformasini kengaytirish dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi.

O'zbekistonda BRMni milliy rivojlanish siyosatiga integratsiya qilish borasida 2018-yildan boshlab tizimli va izchil ishlar jadal sur'atlarda amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 83-son "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori mamlakatda BRMlarni amalga oshirishning institutsional, tashkiliy va monitoring mexanizmlarini yanada takomillashtirishga qaratilgan muhim normativ-huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi va Senati Kengashining 2023-yil 6-noyabrdagi 3671-IV-son "Barqaror rivojlanish maqsadlari oyligini o'tkazish to'g'risida"gi Qo'shma qarorining qabul qilinishi barqaror rivojlanish g'oyalarini keng targ'ib etish, davlat organlari, ta'lim muassasalari, fuqarolik jamiyati institutlari hamda xususiy sektor ishtirokini kengaytirishga xizmat qilayotganini ko'rsatadi.

Ushbu hujjatlar mamlakatda Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilayotgani, institutsional hamkorlik kuchaytirilayotgani hamda mazkur jarayon davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanganini yaqqol namoyon etadi.

Maqola mavzusi yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni (1-jadval) o'rganish jarayonidan aniqlandiki, so'nggi yillarda barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot, yashil investitsiyalar va bandlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalalari xorijiy va mintaqaviy darajada olib borilgan tadqiqotlarda keng yoritilmoqda. Ushbu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar yashil transformatsiya jarayonining nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini ham asoslab berilgan.

Jumladan, Saparova va boshqalar (2022) tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar natijalarida "agro sanoat majmualarida raqamlashtirish, yashil texnologiyalarni joriy etish jarayonlari" tahlil qilingan. Yashil texnologiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirishi, resurslardan foydalanish samaradorligini kuchaytirishi hamda umumiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil ekanini tadqiqotchilar tomonidan aniqlagan. Mualliflar "yashil innovatsiyalar iqtisodiy barqarorlik bilan bir qatorda ekologik muvozanatni mustahkamlashga xizmat qilishini" alohida ta'kidlagan.

1-jadval.

Mavzu yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar sharhi

Muallif(lar), tadqiqot e'lon qilingan yil	Olib borilgan ilmiy tadqiqot yo'nalishi	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	Ilmiy tadqiqotning asosiy natijalari
Saparova va boshqalar (2022)	Agro-sanoat va raqamlashtirish	Statistik va sektor tahlili	Yashil texnologiyalar samaradorlik va barqarorlikni oshiradi.
Smagulova va boshqalar (2021)	Yashil iqtisodiyot va AIC	Indikatorlar tahlili	Yashil transformatsiya bandlik va ishlab chiqarishga ijobiy ta'sir qiladi.
World Bank (2021)	"Green recovery"	Empirik sharh	Yashil investitsiyalar pandemiyadan keyin bandlikni tiklash vositasi.
Sachs (2015)	Barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot	Konseptual tahlil	Yashil investitsiyalar BRMLarni moliyalashtirishning asosiy mexanizmi ekanligi asoslangan.
Perrini & Tencati (2020)	Barqaror biznes modellari	Komparativ tahlil	Yashil investitsiyalar ijtimoiy bandlik sifatini oshiradi.

Manba: muallif tomonidan tuzilgan. Manbalar foydalanilgan adabiyotlar qismida keltirilgan.

Bizningcha, yashil texnologiyalarni joriy etish faqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan cheklanib qolmay, balki mehnat bozorining transformatsiyasiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xususan, yashil investitsiyalar oqimining ortishi yangi ish o'rinlari yaratilishiga, mavjud kasblarning modernizatsiyasiga va "yashil" kompetensiyalarga ega mutaxassislar tayyorlash zarurati yuzaga kelgan. Demak, yashil innovatsiyalar iqtisodiy va ekologik barqarorlikni mustahkamlash bilan bir qatorda, bandlik tuzilmasini sifat jihatdan yangilash va inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlashda ham muhim omil hisoblanadi.

Smagulova va boshqalar (2021) fikricha, "yashil iqtisodiyotning agroindustrial kompleksdagi ta'sirini o'rganib, yashil transformatsiya ishlab chiqarish hajmining oshishi va bandlik ko'rsatkichlarining yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi". Mazkur tadqiqot natijalari yashil iqtisodiyot modeli iqtisodiy o'sish hamda mehnat bozori rivojini bir vaqtda qo'llab-quvvatlovchi mexanizm sifatida namoyon bo'lishini asoslab berganligi bilan ahamiyatlidir.

Bizningcha, Smagulova va boshqalar (2021) tomonidan ilgari surilgan xulosalar ilmiy va amaliy jihatdan asosli bo'lib, ularning fikriga to'liq qo'shilish mumkin. Darhaqiqat, agroindustrial kompleksda "yashil" transformatsiyani joriy etish ishlab chiqarish

jarayonlarining modernizatsiyasiga, resurslardan oqilona foydalanishga hamda energiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Jahon banki (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda “yashil tiklanish” konsepsiyasi doirasida yashil investitsiyalar pandemiyadan keyingi davrda bandlikni tiklash va yangi ish o‘rinlari yaratishning samarali vositasi sifatida baholangan. Hisobotda qayta tiklanuvchi energetika, energiya samaradorligi va ekologik infratuzilmaga yo‘naltirilgan investitsiyalar qisqa muddatda bandlikni qo‘llab-quvvatlashi, uzoq muddatda esa barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashi qayd etilgan”.

Jahon banki tomonidan ilgari surilgan “yashil tiklanish” konsepsiyasi doirasidagi xulosalar ilmiy va amaliy jihatdan asosli bo‘lib, ularning fikriga qo‘shilish mumkin. Mazkur yondashuvning strategik ahamiyati uning uzoq muddatli natijalari bilan ham belgilanadi. Yashil investitsiyalar iqtisodiy o‘shishni ekologik cheklovlar bilan muvozanatlashtirish, resurslardan samarali foydalanish va iqlim o‘zgarishining salbiy ta‘sirini kamaytirish orqali barqaror rivojlanishning yangi modelini shakllantiradi.

Shu bilan birga, Sachs (2015) “barqaror rivojlanish konsepsiyasi doirasida yashil investitsiyalarni Barqaror rivojlanish maqsadlarini moliyalashtirishning asosiy mexanizmlaridan biri sifatida asoslaydi. Muallifga ko‘ra, “ekologik barqarorlik, ijtimoiy inklyuzivlik va iqtisodiy o‘shishning uyg‘unlashuvi aynan yashil investitsiyalar orqali ta‘minlanadi hamda BRM maqsadlarini amalga oshirishda moliyaviy resurslarni safarbar etishning muhim instrumenti sifatida namoyon bo‘ladi”.

Bizning fikrimizcha, Sachs tomonidan ilgari surilgan yashil investitsiyalarni Barqaror rivojlanish maqsadlarini moliyalashtirishning asosiy mexanizmlaridan biri sifatida talqin qilish yondashuvi to‘liq asosli bo‘lib, uning fikriga qo‘shimcha ravishda quyidagilarni ta‘kidlash maqsadga muvofiq. Avvalo, yashil investitsiyalar BRM doirasida belgilangan maqsadlarni amalga oshirishda faqat moliyaviy resurslarni safarbar etish vositasi sifatida emas, balki iqtisodiyotning tarkibiy transformatsiyasini ta‘minlovchi kompleks instrument sifatida ham namoyon bo‘ladi. Xususan, energetika, transport, sanoat va qishloq xo‘jaligi sohalariga yo‘naltirilgan yashil investitsiyalar iqtisodiy o‘shishning ekologik jihatdan barqaror modelini shakllantirish bilan bir qatorda, yangi “yashil” ish o‘rinlari yaratilishi va bandlik darajasining oshishiga xizmat qiladi.


Xorij tadqiqotchilari Perrini va Tencati (2020) tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarda “barqaror biznes modellari doirasida olib borgan tadqiqotlarida yashil investitsiyalar nafaqat ekologik natijalarni, balki bandlikning sifat ko‘rsatkichlarini ham yaxshilashini ko‘rsatadi”. Ularning xulosalariga ko‘ra, “yashil investitsiyalar ijtimoiy mas‘uliyatli biznes amaliyotlarini kengaytiradi, barqaror ish o‘rinlarini yaratadi va mehnat bozorida inklyuzivlikni kuchaytirishga xizmat qiladi”.

Perrini va Tencati tomonidan ilgari surilgan yondashuv zamonaviy barqaror biznes modellari mohiyatini chuqur ochib beradi va ularning fikrlariga qo‘shilish mumkin. Haqiqatan ham, yashil investitsiyalarni korporativ strategiyaga integratsiya qilish nafaqat ekologik samaradorlikni oshiradi, balki bandlikning sifat ko‘rsatkichlariga, ya‘ni barqaror ish sharoitlari, ijtimoiy himoya, malaka oshirish imkoniyatlari va uzoq muddatli mehnat munosabatlariga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bu esa yashil iqtisodiyotning ijtimoiy yo‘naltirilgan modelini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqola bo‘yicha tadqiqotni olib borish jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, “O‘zbekiston-2030” strategiyasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligining Davlat budjeti ijrosiga oid hisobot materiallari, xalqaro moliyaviy institutlari, xususan Jahon Banki ma‘lumotlari asosiy empirik manba sifatida foydalanildi. Qayta tiklanuvchi energetika sohasiga yo‘naltirilgan investitsiyalar dinamikasi va “yashil” moliyalashtirish instrumentlari Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uzviy bog‘liqlikda tahlillari metodologiyasi asos bo‘ldi.

Metodologik jihatdan tadqiqotimiz quyidagi tuzilmaviy piramidal metodologiyaga asoslangan (1-rasm).



1-rasm. Piramidal tadqiqot metodologiyasi

Manba: muallif ishlanmasi.

Mazkur piramidal tadqiqot metodologiyasi (1-rasm) tadqiqotning izchil bosqichlarini aks ettiradi: dastlab manbalar o'rganiladi, so'ng empirik ma'lumotlar tahlil qilinadi va gipotezalar shakllantiriladi. Yakuniy bosqichda esa statistik tahlil asosida ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

2022-yildan boshlab O'zbekiston davlat moliyasini boshqarish tizimida "yashil" budjetlashtirish hamda Barqaror rivojlanish maqsadlariga asoslangan budjetlashtirishni joriy eta boshladi. O'zbekistonning 2022-yilgi davlat budjeti BRM bo'yicha markirovkasiga ko'ra, davlat budjeti xarajatlarining 71 foizi bevosita ushbu global maqsadlarga erishishni moliyalashtirishga yo'naltirilgan.

Respublikamizda BRM 1 (qashshoqlikka barham berish), BRM 3 (sog'liqni saqlash) va BRM 4 (ta'lim) kabi ijtimoiy yo'naltirilgan maqsadlar yetarli darajada moliyalashtirilgan bo'lib (mos ravishda 5,1 trln so'm, 14,9 trln so'm va 33,1 trln so'm), "yashil" o'tish bilan bog'liq BRMlarga ajratilgan mablag'lar nisbatan past darajada qolgan. Xususan, O'zbekiston BRM 13 (iqlim o'zgarishiga qarshi kurash) uchun 99 mlrd so'm, BRM 15 (quruqlikdagi hayot) uchun 196 mlrd so'm hamda BRM 7 (energiya) uchun 25 mlrd so'm ajratgan (Hisobot, 2024).


Infratuzilma bilan bog'liq ayrim BRMlar, jumladan BRM 6 (toza suv va sanitariya – 5,6 trln so'm), BRM 9 (sanoat, innovatsiyalar va infratuzilma – 5,1 trln so'm) hamda BRM 11 (barqaror shaharlar – 9,4 trln so'm) davlat budjetidan nisbatan katta ulushda moliyalashtirilgan.

2-rasmda past uglerodli iqtisodiy rivojlanish, yashil investitsiyalarni kengaytirish, inson kapitalini rivojlantirish, barqaror va inklyuziv urbanizatsiya, tabiiy resurslardan samarali foydalanish hamda "yashil" moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish orqali BRM 7 (toza energiya), BRM 8 (munosib mehnat va iqtisodiy o'sish), BRM 9 (sanoat, innovatsiyalar va infratuzilma), BRM 11 (barqaror shaharlar), BRM 12 (mas'uliyatli iste'mol va ishlab chiqarish) hamda BRM 13 (iqlim o'zgarishiga qarshi kurash) maqsadlariga erishishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlar aks ettirilgan.



2-rasm. 2022-2030 yillarga mo'ljallangan "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi"ning asosiy yo'nalishlari (sdgs.un.org, n.d.)

"Yashil" investitsiyalar qayta tiklanuvchi energiya, energiya samaradorligi, ekologik infratuzilma hamda resurs tejavchi texnologiyalarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, Barqaror rivojlanish maqsadlarining bir qatoriga bevosita va bilvosita xizmat qiladi. Xususan, "yashil" investitsiyalar BRM 7, 9, 11, 12, 13, 14 va 15 maqsadlariga bevosita, BRM 3, 6 va 8 maqsadlariga esa bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois "yashil" investitsiyalar BRMlarni amalga oshirishning muhim moliyaviy instrumentlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.



3-rasm. "Yashil" iqtisodiyotga o'tishning ustuvor yo'nalishlari (To'plam, 2022)

Yuqoridagi 3-rasmda iqlim o'zgarishiga moslashuv, tabiiy resurslardan barqaror va samarali foydalanish, barqaror urbanizatsiya, sanoat va iqtisodiyotning "yashil" hamda kam uglerodli rivojlanishi, innovatsiyalar va "yashil" texnologiyalarni joriy etish, yashil moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish, qulay siyosiy muhit va samarali institutlarni shakllantirish hamda inson kapitalini rivojlantirish kabi yo'nalishlar o'zaro uzviy bog'liq holda aks ettirilgan. Mazkur ustuvor yo'nalishlar Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan to'liq uyg'unlashgan bo'lib, ularni amalga oshirishda "yashil" investitsiyalar tayanch moliyaviy

instrument sifatida namoyon bo'ladi. Qayta tiklanuvchi energiya, resurs tejamkor texnologiyalar, ekologik infratuzilma va past uglerodli sanoatni moliyalashtirish orqali "yashil" investitsiyalar BRM 7, 9, 11, 12 va 13-maqsadlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. «O'zbekiston – 2030» strategiyasining 51-maqsadida «"yashil iqtisodiyot"ga o'tish, uning asosi bo'lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko'rsatkichlarini keskin oshirish» vazifasi belgilangan bo'lib, unda «qayta tiklanuvchi energiya manbalarini 25 ming MVt hamda jami iste'moldagi ulushini 40 foizga yetkazish» (Farmon, 2023) samaradorlik ko'rsatkichi sifatida keltirilgan. 2025-yil holatiga ko'ra, respublikada quyosh va shamol elektr stansiyalari tomonidan ishlab chiqarilgan elektr energiyasi hajmi 9 mlrd kVt-soatni tashkil etib, bu umumiy elektr energiyasi generatsiyasining qariyb 23 foizi "yashil energiya" hissasiga to'g'ri kelayotganini ko'rsatadi (O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari, n.d.). Mazkur ko'rsatkichlar O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energetika sohasiga yo'naltirilayotgan "yashil" investitsiyalar hajmi izchil ortib borayotganini, shuningdek, ularning Barqaror rivojlanish maqsadlari, xususan BRM 7 va BRM 13ga erishishdagi amaliy ahamiyati tobora kuchayib borayotganini tasdiqlaydi. 2014–2018 yillarda 1,4 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan qayta tiklanuvchi energetikaga yo'naltirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 2019–2023 yillarda 11,7 mlrd AQSh dollariga yetib, umumiy investitsiyalarning 50,1 foizini tashkil etgan (Hisobot, 2024) hamda qazilma yoqilg'i sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalardan qariyb uch baravar yuqori bo'lgan.

2-jadval.

BRM 8 doirasida yashil ish o'rinlari va bandlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ustuvor yo'nalishlar (www.worldbank.org, n.d.)

Yashil yo'nalish va uning konteksti	Tavsiya etilgan ustuvorliklar		Mas'ullar
Yashil ish o'rinlari va aholining zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlash	Qisqa muddatli	O'rta muddatli	Idoralar
Ishchi kuchi oqimi murakkab kechishi mumkin, chunki qishloq xo'jaligidagi diversifikatsiya va yuqori daromadli faoliyatlar ishchilarning boshqa tarmoqlarga o'tishini kuchaytiradi. "Yashil" tarmoqlarni rivojlantirish yangi ish o'rinlari yaratish, yangi ko'nikmalarni shakllantirish hamda "jigarrang" sektor ishchilarini qayta tayyorlash va vaqtincha qo'llab-quvvatlash choralari talab etadi.	"Yashil" o'tish jarayonida mehnat bozorida talab va taklif tarkibidagi o'zgarishlarni chuqur tahlil qilish zarur. Ko'chirilgan ishchilarni, ayniqsa zaif qatlamlar, ayollar va yoshlarni yangi ish o'rinlari bilan imtiyozli ta'minlash choralari ko'rilishi kerak. "Yashil" ko'nikmalarni egallash uchun qayta tayyorlash va tadbirkorlik dasturlarini kengaytirish lozim.	Jismoniy shaxslar va korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash hamda himoya qilish mexanizmlarini joriy etish. Jumladan, ekologik va uglerod soliqlari hisobidan moliyalashtiriladigan tizimlarni yaratish. Iqlim o'zgarishi va "yashil" o'tish jarayonida mahalliy aholini qo'llab-quvvatlashda mahalliy hokimiyatlar va mahalla qo'mitalari salohiyatini kuchaytirish. Ularni yer va tabiiy resurslarni rejalashtirish, boshqarish hamda qishloqlarda yashil infratuzilmani rivojlantirish dasturlariga faol jalb etish.	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi; Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi; Iqtisodiyot va moliya vazirligi; Hududiy va mahalliy hokimiyatlar.

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda "yashil" o'tish jarayonida Barqaror rivojlanish maqsadi 8 (munosib mehnat va iqtisodiy o'sish) doirasida yashil ish o'rinlarini rivojlantirish hamda aholining zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlash ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Mehnat bozorida yuz berishi mumkin bo'lgan tarkibiy o'zgarishlar, xususan, qishloq xo'jaligidan boshqa tarmoqlarga ishchi kuchi oqimi kuchayishi ehtimoli qayd etilgan.

Shu munosabat bilan "yashil" tarmoqlarni rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish, yangi ko'nikmalarni shakllantirish hamda "jigarrang" sektor ishchilarini qayta tayyorlash va ijtimoiy himoyalash zarurligi ta'kidlangan. Qisqa va o'rta muddatli ustuvor chora-tadbirlar sifatida mehnat bozorida talab va taklifdagi o'zgarishlarni chuqur tahlil qilish, ko'chirilgan ishchilarni, ayniqsa ayollar, yoshlar va zaif qatlamlarni yangi ish o'rinlari bilan ta'minlash, "yashil" ko'nikmalar bo'yicha qayta tayyorlash hamda tadbirkorlik dasturlarini kengaytirish belgilangan.

Moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari sifatida ekologik va uglerod soliqlari hisobidan moliyalashtiriladigan tizimlarni joriy etish, mahalliy hokimiyatlar va mahalla qo'mitalarining rolini kuchaytirish orqali jarayonning hududiy darajada samarali amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.

Xulosa va takliflar.

O'zbekistonda Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish jarayonida "yashil" investitsiyalar va yashil bandlik strategik tayanch yo'nalishlar sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, BRMLarning milliy rivojlanish siyosatiga izchil integratsiyalashuvi, "yashil" budjetlashtirish mexanizmlarining joriy etilishi hamda "O'zbekiston - 2030" strategiyasida yashil iqtisodiyotga o'tishning ustuvor vazifa sifatida belgilanishi mamlakatda barqaror, past uglerodli va inklyuziv iqtisodiy rivojlanish uchun zarur institutsional va moliyaviy asoslarni shakllantirmoqda. Qayta tiklanuvchi energetika sohasiga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmining keskin ortishi, "yashil energiya" ulushining elektr ishlab chiqarish tarkibida barqaror oshib borayotgani hamda xususiy kapitalni faol jalb etish amaliyoti "yashil" investitsiyalarning BRM 7 va BRM 13ga erishishdagi real amaliy samaradorligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ekologiya va iqlim yo'nalishidagi BRMLar moliyalashtirilishining nisbatan past darajada qolayotgani "yashil" moliyalashtirish instrumentlarini, jumladan "yashil" obligatsiyalar, barqaror bank mahsulotlari va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini yanada keng joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari "yashil" transformatsiya jarayoni nafaqat ekologik barqarorlik, balki mehnat bozori modernizatsiyasi va ijtimoiy inklyuzivlik uchun ham muhim omil ekanini asoslaydi. Xususan, yashil ish o'rinlarini rivojlantirish, "jigarrang" sektor ishchilarini qayta tayyorlash, ayollar va yoshlarni "yashil" ko'nikmalar bilan ta'minlash BRM 8 doirasida iqtisodiy o'sishning sifat jihatidan yangi modelini shakllantirish imkonini beradi.

Umuman olganda, "yashil" investitsiyalar va yashil bandlik O'zbekistonda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning ko'p tarmoqli, multiplikativ ta'sirga ega strategik instrumentlari bo'lib, ularni davlat siyosatining barcha darajalarida, hududiy rivojlanish dasturlarida hamda xususiy sektor strategiyalarida tizimli ravishda kengaytirish mamlakatning uzoq muddatli barqaror va raqobatbardosh rivojlanishini ta'minlashda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

"O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyati (n.d.) Yillik hisobot. Available at: <https://t.me/c/1805597513/2910>

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (UN) Barqaror rivojlanish maqsadlari rasmiy veb-sahifasi. Available at: <https://sdgs.un.org/>

Jahon banki (n.d.) Rasmiy veb-sahifa. Available at: <https://www.worldbank.org>

Nasirov, E.I. (2025) Barqaror rivojlanish konsepsiyasi doirasida "yashil" loyihalarni moliyalashtirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish. Toshkent.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (2024) Yillik hisobot. Available at: <https://greenapi.imv.uz>

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi va Senati Kengashi (2023) "Barqaror rivojlanish maqsadlari oyligini o'tkazish to'g'risida" Qo'shma qaror, 3671-IV-son, 6-noyabr.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2019) "2019–2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" Qaror, 4-oktyabr.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2023) "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida Farmon, 11-sentyabr.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi (2022) "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qaror, 83-son, 21-fevral.

Perrini, F. and Tencati, A. (2006) Sustainability and stakeholder management. *Business Strategy and the Environment*.

Sachs, J.D. (2015) *The age of sustainable development*. Columbia University Press.

Saparova, G. (2022) Agro-sanoat majmualarida raqamlashtirish va yashil texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligi. *Journal of Sustainable Agriculture and Digital Economy*, 4(2), pp. 45–56.

Smagulova, G. (2021) Yashil iqtisodiyot sharoitida agroindustrial kompleksni rivojlantirish va bandlikka ta'siri. *Economics and Sustainability Review*, 3(1), pp. 22–31.

To'plam (2022) O'zbekiston Respublikasi "Yashil" o'sish va iqlim o'zgarishi bo'yicha siyosiy muloqotlar turkumi: Ishlar to'plami.

Turobova, H.R. and Kadirova, M.M. (2025) *Yashil iqtisodiyot*. Buxoro: KAMOLOT.